



O'zbekistonda 2024-yil inflyatsiyasi va aholi farovonligi: real daromadlar tahlili

Ilmiy rahbar.

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i

Innovatsion menejment kafedrası dotsenti Phd,

E-mail: g.ibragimov@tsue.uz

Islomov Mardumar Zafar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Menejment fakulteti MNP-75/23 guruhi talabasi so

E-mail: mardumarislomov2005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2024-yilgi 9,8 foizlik inflyatsiya sharoitida aholi real daromadlarining o'zgarishi, hududiy tengsizlik va kambag'allikni qisqartirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, real daromadlar, aholi farovonligi, kambag'allik, Iste'mol narxlari indeksi (INI).

Abstract: This article analyzes changes in real income, regional inequality, and poverty reduction amidst 9.8% inflation in 2024.

Keywords: inflation, real income, population well-being, poverty, Consumer Price Index (CPI).

Аннотация: В статье проанализированы изменения реальных доходов населения, региональное неравенство и сокращение бедности в условиях инфляции 9,8% в 2024 году.

Ключевые слова: инфляция, реальные доходы, благосостояние населения, бедность, Индекс потребительских цен (ИПЦ).

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi mavhumliklar va geosiyosiy keskinliklarning ortib borishi oqibatida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning turli yo'llaridan foydalanilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inflyatsiyani jilovlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali davlat aholining xarid qobiliyatini saqlab qolish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishni



maqsad qilgan [1].

Ta'kidlash joizki, 2024-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya darajasining 9,8 foizni tashkil etishi iqtisodiyotda narxlar barqarorlashuvining ijobiy signali bo'lsa-da, energiya resurslari tariflarining erkinlashtirilishi va xizmatlar sohasidagi narx o'sishi aholining real daromadlariga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Investorlar va tahlilchilar uchun manfaatli bo'lgan bozor islohotlari, qisqa muddatda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun sinovli davr bo'lishi, odatda, tarkibiy o'zgarishlar davrida kuzatiladigan qonuniyatdir [2].

Aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichi sifatida real daromadlar va inflyatsiya o'rtasidagi mutanosiblik muhim omil hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan, nominal daromadlarning yuqori sur'atlarda (18,5 foiz) o'sishiga qaramasdan, iste'mol narxlarining o'zgarishi aholining real daromadlari o'sishini (8,1 foiz) sekinlashtirishi mumkin [3]. Narxlarning o'sishi nafaqat kundalik iste'mol xarajatlariga, balki aholining jamg'arma qilish qobiliyatiga va kelajakdagi investitsion faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu maqolada inflyatsion jarayonlarning aholi farovonligiga ta'siri va real daromadlarni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bizga ma'lumki, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda inflyatsiya darajasi va aholi real daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik fundamental ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda narxlar barqarorligi va aholi farovonligi o'rtasidagi korrelyatsiya ko'p bora tahlil qilingan bo'lib, bu jarayon davlat, biznes va uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi.

Ayrim tadqiqotlarda "yuqori inflyatsiya sharoitida daromadlar taqsimotidagi tengsizlik kuchayishi va bu, ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamiga nomutanosib ravishda og'ir ta'sir ko'rsatishi muhokama qilingan" [4]. Juraev va Tursunov tadqiqotlarida "o'tish davri iqtisodiyotlarida energiya tariflarining erkinlashtirilishi dastlabki bosqichda Iste'mol narxlari indeksining (INI) keskin oshishiga olib kelishi, biroq bu bozor mexanizmlarining to'g'ri ishlashi uchun zaruriy 'shok terapiyasi' ekanligi asoslab berilgan" [4].

Bizning fikrimizcha, O'zbekistondagi joriy inflyatsion jarayonlardagi asosiy fenomenlar quyidagilar bilan izohlanadi: taklif omillarining ustunligi, xizmatlar sohasidagi narxlarning ma'muriy tartibga solishdan voz kechish natijasida o'sishi va global logistika zanjirlaridagi uzilishlar. Buning natijasida, iste'mol savatidagi birlamchi tovarlar va xizmatlar narxi oshib, nominal daromad o'sishini "yeb qo'yish" tendensiyasi kuzatilmoqda.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tahlilchilari "inflyatsiyaning monetar omillardan



ko'ra ko'proq tarkibiy islohotlar va tashqi shoklar hisobiga shakllanishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda 'yopishqoq narxlar' effektini yuzaga keltirishini keng tahlil qilganlar" [5]. Ayrim tadqiqotlarda "inflyatsiyani jilovlashda faqat monetar siyosat (stavkalarni oshirish) yetarli bo'lmay, fiskal konsolidatsiya va raqobatni rivojlantirish zarurligi ko'rib chiqilgan" [5].

Markaziy bankning so'nggi hisobotlarida qayd etilishicha, "aholining inflyatsion kutilmalari rasmiy inflyatsiyadan yuqori shakllanmoqda". Tahlilchilar "iste'molchilarning narx oshishiga bo'lgan sezgirligi yuqoriligi va axborot asimmetriyasining mavjudligiga alohida e'tibor qaratadilar" [6]. Bunday tadqiqotlar xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan muhim bo'lib, aholi narxlar oshishini kutganda, bugungi iste'molni ko'paytirishi va bu o'z navbatida talab inflyatsiyasini qo'shimcha rag'batlantirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mualliflar ishlarida real daromadlar va kambag'allik darajasining o'zgarishini quyidagi holatlar bilan baholaganlar:

1. Hududiy differensiatsiya: Jahon banki va Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy o'sish markazlashgan hududlarda (masalan, poytaxt) tezroq kechadi, chekka hududlarda esa daromadlar o'sishi inflyatsiyadan ortda qolishi mumkin. Bu esa "ishlaydigan kambag'allar" qatlamining paydo bo'lish xavfini tug'diradi [7].
2. Inson kapitali omili: Daromadlarning barqaror o'sishi faqatgina mehnat unumdorligi oshishi hisobiga ta'minlanishi mumkin. Tadqiqotchilar fikricha, ta'lim va sog'liqni saqlashga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatda inflyatsiya bosimini yumshatuvchi va real daromadlarni oshiruvchi eng samarali vosita hisoblanadi [8].

Xulosa qilib aytganda, 2024-yilda kuzatilgan inflyatsiya va daromadlar dinamikasi murakkab makroiqtisodiy muvozanat jarayonini aks ettiradi. Narxlar barqarorligiga erishish nafaqat iqtisodiy, balki kuchli ijtimoiy ahamiyatga ega masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va aholi turmush darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Markaziy bank hamda xalqaro moliya institutlarining (Jahon banki, XVJ) 2024-yilga oid ochiq statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida iqtisodiy tahlilning qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, gorizontal va vertikal tahlil hamda trendlar tahlili usullari qo'llanilgan. Aholi real daromadlarining o'zgarishiga inflyatsiya omillarining ta'sirini baholashda induksiya va deduksiya mantiqiy usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv orqali inflyatsiyaning hududiy va ijtimoiy qatlamlar kesimidagi differensial ta'siri yoritib berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun global beqarorliklar fonida makroiqtisodiy muvozanatni ushlab turish va aholi farovonligini ta‘minlash bo‘yicha sinovli davr bo‘ldi. Makroiqtisodiy barqarorlikning oshishi va Markaziy bankning qat‘iy pul-kredit siyosati natijasida yillik inflyatsiya ko‘rsatkichlari prognoz koridorida shakllandi. Tahlillarni narxlar dinamikasidan boshlaydigan bo‘lsak, 2024-yil yakunlari bo‘yicha iste‘mol bozoridagi umumiy inflyatsiya darajasi 9,8 foizni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yillarga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, uning tarkibiy qismlarida sezilarli nomutanosibliklar kuzatildi. Quyidagi jadvalda inflyatsiyaning asosiy guruhlar kesimidagi o‘zgarishi aks ettirilgan:

1-jadval

Iste‘mol narxlari indeksi (INI) ning tarkibiy dinamikasi (2023-2024 yillar taqqoslamasi) [6]

Ko‘rsatkich nomi	2023-yil (%)	2024-yil(%)	O‘zgarish farqi (+/-)
Umumiy inflyatsiya	8,8	9,8	+1,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,7	2,4	-7,3
Nooziq-ovqat tovarlari	7,7	8,2	+0,5
Xizmatlar	8,2	28,4	+20,2

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, umumiy inflyatsiyaga eng katta hissa qo‘shgan omil — bu xizmatlar sohasidagi narxlarning keskin oshishidir. 2024-yil may oyidan boshlab energiya resurslari (elektr energiyasi va tabiiy gaz) tariflarining aholi uchun erkinlashtirilishi xizmatlar inflyatsiyasini 28,4 foizga yetishiga sabab bo‘ldi. Aksincha, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishi 2,4 foizgacha pasayib, umumiy inflyatsiyani jilovlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Oylik inflyatsiya dinamikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng yuqori o‘shish sur‘atlari tariflar oshirilgan may-iyun oylariga to‘g‘ri kelganligi, yil oxiriga kelib esa narxlar barqarorlashuvi kuzatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Narxlar o‘sishi sharoitida aholi farovonligining real holatini baholash uchun daromadlar tarkibi va ularning o‘shish sur‘atlarini tahlil qilish lozim. 2024-yilda aholining umumiy daromadlari nominal qiymatda 18,5 foizga oshib, 896,3 trln so‘mni tashkil etdi. Biroq, inflyatsiya darajasini chegirib tashlaganda, real daromadlar o‘sishi 8,1 foizni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich daromad manbalari bo‘yicha turlicha



taqsimlangan bo‘lib, quyidagi diagrammada daromadlarning shakllanish manbalari keltirilgan:

Aholi daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari (27,9%) va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar (35,0%) eng katta ulushga ega. Davlat tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat natijasida pensiya va nafaqalar (transfertlar) ulushi 26 foizni tashkil etdi, bu esa aholining zaif qatlamlarini inflyatsiyadan himoya qilishda muhim rol o‘ynadi. Shunga qaramay, daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik hududlar kesimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Respublika hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni quyidagi tahliliy jadval orqali ko‘rish mumkin:

2-jadval

Hududlar bo‘yicha aholi daromadlari va real o‘sish sur‘atlari differentsiatsiyasi (2024-yil) [7]

Hududlar	Jon boshiga nominal daromad (mln so‘m)	Real o‘sish sur‘ati (%)	Respublika o‘rtacha darajasiga nisbatan (%)
Toshkent shahri	60,6	15,4	251%
Navoiy viloyati	38,1	7,9	158%
Respublika o‘rtacha	24,1	5,9	100%
Namangan viloyati	16,8	0,5	69%
Surxondaryo viloyati	17,9	0,2	74%
Qoraqalpog‘iston R.	16,8	2,1	69%

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri va Navoiy viloyati aholisining daromadlari respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik va sanoatlashuv darajasi balandligidan dalolat beradi. Aksincha, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida real daromadlar o‘sishi 1 foizga ham yetmagan (0,2-0,5%), bu esa ushbu hududlarda aholi daromadlarining deyarli to‘liq qismi inflyatsiya oqibatida yuzaga kelgan qo‘shimcha xarajatlarni qoplashga sarflanayotganini anglatadi. Bu holat "kambag‘allik qopqoni" xavfini kuchaytirishi mumkin bo‘lsa-da, hukumatning 2024-yildagi "mahallabay" ishlash tizimi va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari natijasida umumiy kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga qisqartirilishiga erishildi [8]. Yakuniy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2024-yil "shoklarga bardoshlilik" yili bo‘lib, nominal daromadlar va ijtimoiy to‘lovlar



oshirilishi orqali inflyatsiyaning aholi turmush darajasiga salbiy ta'siri qisman yumshatildi, ammo hududlararo tengsizlikning chuqurlashuvi fundamental iqtisodiy islohotlarni davom ettirish zaruratini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolamizda ilgari surilgan muammolarni yechimi va 2024-yilgi makroiqtisodiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 2024-yilgi 9,8 foizlik inflyatsiya ko'rsatkichi ijobiy dinamika bo'lsa-da, barqaror iqtisodiy o'sish uchun uni 5 foizlik target darajasiga tushirish strategik vazifa hisoblanadi. Buning uchun Markaziy bankning mustaqilligini yanada mustahkamlash, bazaviy stavka orqali pul massasini qat'iy nazorat qilish va fiskal konsolidatsiyani (budjet taqchilligini kamaytirish) ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Narxlar barqarorligi — aholi real daromadlarini himoya qilishning eng samarali vositasidir.
2. Tahlillar ko'rsatganidek, Namangan, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida real daromadlar o'sishi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli orqada qolmoqda. Ushbu hududlarda aholi daromadlarini oshirish uchun "hududiy o'sish drayverlari"ni ishga solish, xususan, sanoatlashmagan tumanlarga investitsiya kiritgan tadbirkorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli ish o'rinlarini yaratish bo'yicha manzilli dasturlarni qabul qilish zarur.
3. Energiya tariflarining erkinlashtirilishi fonida aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'z samarasini berdi (kambag'allik 8,9 foizga tushdi). Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali yordam pullarini faqat muhtoj qatlamga (targeting) yo'naltirish samaradorligini oshirish hamda inflyatsion shoklar davrida avtomatik kompensatsiya to'lash mexanizmini to'liq joriy etish lozim.
4. Real daromadlarning barqaror o'sishi faqatgina mehnat unumdorligi oshishi hisobiga ta'minlanishi mumkin. Ta'lim va sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash, kasb-hunarga o'qitish tizimini bozor talablariga moslashtirish orqali "ishlaydigan kambag'allar" qatlamini o'rta sinfga o'tkazish choralari ko'rish kerak. Bu uzoq muddatda talab inflyatsiyasini keltirib chiqarmasdan turib, farovonlikni oshirishning yagona yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-213-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi "2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 865-son qarori.
4. Juraev, A., & Tursunov, B. Impact of Energy Tariff Liberalization on Consumer Price Index in Transition Economies. *The Journal of Economic Reforms*, Vol. V, № 2 (2024), pp. 45-58.
5. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2024 Article IV Consultation. *IMF Country Report*, No. 24/12 (2024).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil yanvar-dekabr oylari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy holati. *Statistika axborotnomasi*, (2025). URL: <https://stat.uz>
7. Kun.uz. 2024-yilda aholi daromadlarining real o‘shish sur‘ati va hududiy farqlar tahlili. *Kun.uz*, (2025). URL: <https://kun.uz/news/2025/01/20/daromadlar-tahlili>
8. Gazeta.uz. O‘zbekistonda 2024-yilda kambag‘allik darajasi 8,9 foizga qisqardi. *Gazeta.uz*, (2025). URL: <https://gazeta.uz>